

**O'QUVCHILARDA KORRUPSIYAGA QARSHI
KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK
MASALALARI**

Qurbonaliev Raufjon Teshaboyzoda

Farg'ona viloyati So'x tuman 12- IDUM amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: *Korrupsiya- shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish.*

Kalit so'zlar: *Korrupsiya, islohotlar, sudyalar, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi.*

KIRISH

Korrupsiya bu – mansab mavqeidan shaxsiy maqsadlarda foydalanish bilan bog'liq bo'lgan jinoyat turi hisoblanadi. Korrupsiya faoliyati xufyona iqtisodiyotning asosiy turlaridan biridir. Aksariyat hollarda korrupsiya deganda davlat xizmatchilari tomonidan shaxsiy manfaatlarni ko'zlab, boylik orttirish maqsadida xalqdan pora olish, qonunga xilof pul daromadlarini qo'lga kiritish tushuniladi. Ammo, umuman olganda, davlat amaldorlarigina emas, balki, davlat tashkilotida ishlamaydigan fuqarolar ham korrupsiyaga doir munosabatlarning ishtirokchilari bo'lishi, pora pul emas, balki boshqa narsa evaziga ma'lum xizmatni amalga oshirishlari mumkin.

Korrupsiya masalasi dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo'lgan eng asosiy global muammolardan biridir. Bu muammo har qanday davlat va jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadigan, inson huquq va erkinliklarining poymol bo'lishiga olib keladigan salbiy illatdir. Shuning uchun ham bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurash masalasi xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalasi qatoridan joy oldi.

Korrupsiya- shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish.

Insoniyat tarixida ma'lumki, korrupsiya jamiyatni yemiradigan, shaxsni ahloqiy jihatdan inqirozga uchratadigan, har qanday davlat iqtisodiyotiga salbiy ta'sir qiladigan ijtimoiy illatdir. Mustaqilligimizning ilk yillarida ham aynan shu masalaga alohida to'xtalib o'tildi. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov rahbarligida mamlakatda qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlashning va korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari shakllantirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham qonun ustuvorligini ta'minlash va korrupsiyaga qarshi qat'iy kurashish bo'yicha muhim takliflarni ilgari surdi.

"Islohotlarimiz samarasi ko'p jihatdan 4 ta muhim omilga, ya'ni qonun ustuvorligini ta'minlash;

korrupsiyaga qarshi qat'iy kurashish;

institutsional salohiyatni yuksaltirish va kuchli demokratik institutlarni shakllantirishga bog'liq

bilan alohida suhbat-intervyular o'tkazish qo'l keladi.

Yakkama-yakka suhbatlarda korrupsiyaning shakli, ishlash mexanizmi, amalga oshirishdagi halqalar – shaxslar, usul va vositalar haqidagi ma'lumotlar to'planadi. Shundan so'ng korrupsionerga emas, balki korrupsiyani keltirib chiqarayotgan sabablarga qarshi kompleks kurash chora-tadbirlari ishlab chiqiladi. Bunda korrupsioner, unga vositachilik qilayotganlar qattiq ogohlantirilishi, mansabdor shaxslar, yaqin qarindoshlarining daromadlari, mol-mulkleri, sarf-xarajatlari o'rganilib, noqonuniy yo'l bilan topilgan daromadlar aniqlangan taqdirda, tegishli tartibda javobgarlikka tortilishi mumkin.

Bu usul korrupsiyaga xizmat qilayotgan omillarni tizimli bartaraf etish, qaysi o'rinlarda korrupsiyaga ko'proq yo'l qo'yilayotganini, buning sabablarini aniqlash imkonini ham beradi.

Bolalikdan korrupsiyaga qarshi toqatsizlik kayfiyatini uyg'otish uchun maktablarda antikorrupsion darslar tashkil etilishi kerak. Darsda korrupsiya nima, uning qanday zararlari borligi bolalar tushunadigan sodda tilda yetkazilishi, o'quvchilar bilan korrupsiya haqida suhbatlar o'tkazilishi, rolli o'yinlar o'ynalishi mumkin.

Darslarda korrupsion holatlarga aniq misollar keltirilib, uning oqibatlari, qarshi kurashish usullari, bunda o'quvchining shaxsiy ishtiroki qanday bo'lishi aytiladi. Masalan, muayyan tibbiy ma'lumotnomani olishda ko'rikdan o'tmay turib, pora evaziga ishni bitirish holati hammaga tanish. Ammo shunday yo'l bilan tibbiy ma'lumotnoma olgan sil kasalligiga chalingan shaxs maktab oshxonasida ishlasa nima bo'ladi? Oqibatda qancha odam kasallanadi, ular orasida siz ham bo'lishingiz mumkin, deyiladi.

Kichik yoshdagi bolalar bilan ishlashda rolli o'yinlar foydali. Biror vaziyat sahnalashtirilib, pora oluvchi soha mutasaddilari roli bolalar o'rtasida taqsimlanadi. Yoki bolalar vijdonli va vijdonsiz rahbar haqidagi o'z qarashlarini suratlar orqali tasvirlab beradi.

Jamiyatda poraxo'rlikka qarshi kurash keng qamrovli, kompleks ishlarni o'z ichiga oladi. Birgina sababga qarshi kurashib bu illatni yo'qotib bo'lmaydi. Barcha sabablar chuqur o'rganilishi, poraxo'rlik, ya'ni oqibat emas, balki unga olib boruvchi yo'llar, uni vujudga keltiruvchi sabablar yo'qotilishi kerak.

O'qituvchi pora olmaydi, maktab direktori hammani teng ko'radi, u o'z mansabi va vakolatlarini hech qachon suiiste'mol qilmaydi, biz pora berib o'qimaymiz, ta'limda tenglik, qonuniylik, ochiqlik va shaffoflik bo'lishi shart, qabilidagi tushunchalar odamlarning qon-qoniga singib, qadriyat darajasiga ko'tarilmas ekan, korrupsiya biz bilan yonma-yon yashayveradi.

Shuningdek, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2021-2025-yillariga mo'ljallangan milliy strategiya loyihasini ishlab chiqishi jadalstirish va uning loyihasini keng jamoatchilik, fuqarolar o'rtasida ommaviy muhokamasiga taqdim etish bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilinmoqda.

Harakat bir tomondan emas, ikki tomondan qulinsa, marraga tezroq yetib

boriladi. Ya'ni, korrupsiyaga qarshi faqat davlat organlari, shuningdek, ishlab chiqilgan samarali qonunlar orqaligina erishib qolmaymiz. Bu qonunlarni amalda ijro etish faqat davlatning emas, bizning ham majburiyatimizdir.

XULOSA

Korrupsiyaga qarshi kurashish har bir fuqaroning, ichki-ruhiy maslagi va e'tiqodiga aylanishi kerakki, bu korrupsiyaga qarshi ma'rifatning o'zagini tashkil qiladi. Mamlakatimizning kelajagini va obro'-e'tiborini qadrlaydigan har bir vijdonli fuqaro korrupsiya tahdidini zararli oqibatlarini doimo esda tutmog'i va unga qarshi kurashmog'i shart.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “ Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
24.01.2020
3. Internet materiallari